

13. 10 ga bo'linish alomati



Yondosh mavzu:
O'zbekistondagi ko'llar

Bo'luvchilar, karralilar,
yaxlit sonlar



1. Har bir yig'indiga son tanlang. Bu sonlar ostidagi so'zlarni nima birlashtiradi?

$$3 + 60 + 700 + 8\,000 + 90\,000 + 100\,000$$

198 736

Tuzkon

367 891

Ko'ksuv

1 008 763

Qorataka

3 400 000

Chotqol

$$8 + 50 + 9\,000 + 300\,000$$

8 593

Qamchiq

3 958

Badak

309 058

Urung'och

39 508

Beshtor

$$60 + 500 + 700\,000$$

756 000

Talas

65 700

Yaltirbosh

75 600

Chimtarga

700 560

Ixnach



2. Qaysi sonlar quyidagi tengsizlikning yechimi bo'ladi?

$$x : 10 < 432 - 422$$

Bu sonlarni qanday umumiy so'z bilan atash mumkin?

10 ga bo'linish alomati

Agar son 0 raqami bilan tugasa, u holda shu son
10 ga bo'linadi.



3. Ushbu ifodalarning qiymatlari 10 ga bo'linish yoki bo'linmasligini tekshiring.

a) $(2\,808 + 5\,698 + 1\,094) : 4$

b) $356 \cdot 3 + 241 \cdot 3 + 173 \cdot 3$

d) $(13\,450 + 28\,567) - 339 \cdot 3$

13. 10 ga bo'linish alomati



4. Dam olish uchun Tuzkon ko'liga sayohat 1 830 000 so'mga, Urung'och ko'liga sayohat esa 2 baravar arzonga tushadi. Uch kishilik oila Tuzkon ko'liga borishni, 5 kishilik oila esa Urung'och ko'liga borishni rejalashtirgan. Qaysi oila ko'p va qancha ko'p to'laydi?




5. Tenglamalarni yeching. Ildizlaridan qaysi biri 10 ga bo'linadi?
- a) $2\,365 + x \cdot 8 = 8\,000 - 3\,635$
 b) $78\,000 : y + 2\,805 = 3\,127 + 1\,678$



6. O'zbekistonda 509 ta ko'l va suv omborlari mavjud bo'lib, shulardan 12 tasi katta va 32 tasi o'rta kattalikdagi ko'llar, qolganlari kichik ko'llar. O'zbekistondagi kichik ko'llar sonini toping.



7. Paletka yordamida eng katta yuzaga ega bo'lgan ko'lni toping.



8. O'zbekistondagi ba'zi ko'llarning yuzasini toping. Yuzasi eng katta va eng kichik bo'lgan ko'llarni aniqlang.

Ko'llar	Yuzasi	Perimetri
Aydarko'l	$5 \cdot 500 + 26 \cdot 3 \text{ km}^2$	$400 : 8 \cdot 7 \text{ km}$
Sariqamish	$(59 + 185) \cdot 4 \text{ km}^2$	$25 \cdot 4 + 59 \text{ km}$
Tuzkon	$2 \cdot (34 + 46) \cdot 4 \text{ km}^2$	$(465 + 347) : 7 \text{ km}$
To'dako'l	$750 - (35 + 75) \cdot 5 \text{ km}^2$	$(900 - 342) : 9 \text{ km}$

13. 10 ga bo'linish alomati



9. Matematik tilda yozing. Qulay usulda hisoblang.

- a) 319, 975 va 181 sonlari yig'indisi.
- b) 983 soni bilan 168 va 183 sonlari yig'indisining ayirmasi.
- d) 378 va 167 sonlari yig'indisi bilan 268 sonining ayirmasi.



10. Qishloqdan ko'lgacha uchta so'qmoq orqali borish mumkin.

Abdulmalik ko'lgacha bir so'qmoq orqali borib, boshqasi orqali qaytmoqchi. Buni nechta usulda bajarish mumkin?



11. Hisoblang.

- a) $2\,045 : 5 + 161 \cdot 73 - 27 \cdot 13$;
- b) $1\,0270 - 4270 + 11 \cdot 560 - (60\,005 - 5\,168) : 9$.

12. Shakllar yuzini katakchalar yordamida toping. Shakllar yuzini qanday qilib soddaroq usulda hisoblash mumkinligini o'ylab ko'ring.

